

**MARKAZIY BANK PUL-KREDIT SIYOSATINING TO'LOV  
BALANSIGA TA'SIRI**

*Achilov Ortiqjon Rustam o'g'li*  
*Bank moliya Akademiyasi magistranti*

*Annotatsiya: ushbu maqolada banklarda-pul kredit siyosatining amalga oshirilishi, maqsadi, mazmun va tamoyillari ifodalangan bo'lib, mamlakatimiz va jahon banklarida ushbu tizimning ahamiyati, iqtisodiyot, pul va to'lov sohalariga ta'siri va joriy yildagi natijalar yoritilgan.*

*Аннотация: в данной статье описаны реализация, цель, содержание и принципы денежно-кредитной политики в банках, значение этой системы в банках нашей страны и мира, ее влияние на экономику, денежно-кредитную сферу, а также результаты. текущего года.*

*Kalit so'zlar: pul-kredit siyosati, Markaziy bank, narxlar barqarorligi, inflyatsion targetlash.*

*Ключевые слова: денежно-кредитная политика, Центральный банк, стабильность цен, таргетирование инфляции.*

**KIRISH**

Pul-kredit siyosati. Pul-kredit siyosati - Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan va iqtisodiyotda narxlar barqarorligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.

Pul-kredit siyosatining maqsadi: iqtisodiyotda narxlar barqarorligini ta'minlash. Markaziy bank inflyatsiyani past va barqaror darajada bo'lishini ta'minlash orqali aholi daromadlarining qadrsizlanishini oldini olishga hamda barqaror inklyuziv iqtisodiy o'sishga zaruriy sharoitlar yaratadi.

Inflyatsion targetlash rejimi: Pul-kredit siyosatining inflyatsion targetlash rejimida inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichi – targeti belgilanadi hamda Markaziy bankning barcha xatti-harakatlari inflyatsiyaning ushbu target darajasi atrofida bo'lishiga qaratiladi.

O'zbekiston Respublikasida 2019-yil 18-noyabrdagi 5877-sonli Prezident Farmoni bilan pul-kredit siyosatining inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tishi belgilangan. Mazkur Farmon bilan inflyatsiya bo'yicha target 5 foiz etib belgilangan edi.

Pul-kredit siyosatining asosiy tamoyillari

Inflyatsiya darajasining target (maqsadli) ko'rsatkichi belgilanadi va pul-kredit siyosatining barcha choralari ushbu targetga erishishga qaratiladi;

Markaziy bank asosiy stavkasi pul-kredit siyosatini yuritishning asosiy instrumenti hisoblanadi;

Pul-kredit siyosati operatsion mexanizmi mustaqil ravishda ishlab chiqiladi va takomillashtirib boriladi;

Pul-kredit siyosati bo'yicha qabul qilinayotgan qarorlar va choralar makroiqtisodiy tahlil va prognozlarga asoslanadi;

Pul-kredit sohasidagi o'zgarishlar shaffof tarzda amalga oshiriladi va keng jamoatchilikka batafsil tushuntirib boriladi.

### **ASOSIY QISM**

Markaziy bank boshqaruvi 2024-yil 25-iyuldagi yig'ilishida asosiy stavkani 0,5 foiz bandga pasaytirib, yillik 13,5 foiz darajasida belgiladi. Bazaviy inflyatsiyaning pasayishi va inflyatsion kutilmalar dinamikasi energiya tariflari oshirilishining inflyatsiyaga ikkilamchi ta'siri kutilganidan past bo'layotganligini ko'rsatib, yil yakunida inflyatsiya prognoz koridorining quyi chegaralarida shakllanishi bo'yicha ishonchni oshirmoqda. Nisbatan qat'iy pul-kredit sharoitlari ishlab chiqarishning ijobiy tafovutini qisqarib borishiga va talab tomondan inflyatsion bosimning pasayishiga xizmat qilmoqda. Iyun oyida umumiy inflyatsiya yillik 10,6 foiz darajasida shakllanib, inflyatsiyaning barqaror komponentlari va meva-sabzavotlar narxlarida sezilarli pasayish kuzatildi.

Tashqi bozorlardagi narxlar dinamikasi ham import inflyatsiyasiga pasaytiruvchi ta'sir ko'rsatishda davom etmoqda. Shuningdek, oziq-ovqat tovarlari inflyatsiyasining pasayishi hamda almashuv kursi barqarorligi aholining inflyatsion kutilmalariga ijobiy ta'sir ko'rsatib, iyun oyida sezilarli pasayishiga olib keldi. Bu esa, kutilmalar tomonidan inflyatsiyaga bosimlarni pasayib borishiga sharoit yaratadi. Bazaviy inflyatsiyaning pasayuvchi dinamikasi davom etib, iyunda 5,9 foizga teng bo'ldi va yil boshidan 2,6 foiz bandga pasaydi. Bu inflyatsiyaning kelgusida ham pasayuvchi trendining davom etishiga ishora bermoqda. Joriy yildagi bazaviy inflyatsiya tendensiyasi va inflyatsion omillar ta'sirining kutilganidan pastroq bo'lishi hisobiga inflyatsiya prognozi pasayish tomonga qayta ko'rib chiqildi. Yil yakunida umumiy inflyatsiyaning 9 foiz atrofida shakllanishi va 2025-yil oxirida 5 foizlik target darajasiga yaqinlashishi kutilmoqda. 2024-yilning II choragida iqtisodiy o'sish tezlashishda davom etib, I yarim yillikda iqtisodiyot real hisobda 6,4 foizga o'sdi. Sanoat, qurilish va xizmatlar sohalaridagi yuqori faollik iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlamoda. Yuqori investitsion faollik, xususan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy va xususiy kapital qo'yilmalari yalpi investitsion talabni oshishida muhim omillardan bo'lmoqda. Tadbirkorlarning iqtisodiy faolligi va ishbilarmonlik kayfiyati bo'yicha indekslarda so'nggi ikki oyda nisbatan pasayish kuzatilgan bo'lsada, ijobiy natijalar saqlanib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki PUL-KREDIT SIYOSATI SHARHI, 2024 yil II chorak 4 Yilning II yarmida ham yuqori investitsion va ishlab chiqarish faolligining saqlanib qolishi fonida yil yakuni bo'yicha real YaIM o'sishi prognozi 5,7-6,2 foizgacha oshirildi. Aholi va tadbirkorlik subyektlari xarajatlaridagi tarkibiy o'zgarishlar ta'sirida yalpi iste'mol talabining ma'lum ma'noda maqbullashishi prognoz qilinmoqda. Iqtisodiyotda nisbatan qat'iy pul-kredit sharoitlarining saqlanib qolayotganligi yalpi talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi. Natijada, bugungi kunda shakllangan 0,5-0,6 foizlik YaIM ijobiy tafovutining yil yakuniga qadar yopilishi va inflyatsiyaga oshiruvchi ta'siri pasayishi kutilmoqda.

Asosiy savdo hamkorlardagi yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari hamda jahon

narxlarining qulay konyunkturasi sharoitida eksport tushumlari va pul o'tkazmalari hajmlarining dastlabki prognozlarga nisbatan yuqori sur'atlarda o'sishi taxmin qilinmoqda. Joriy yilning II choragida iqtisodiyotga turli kanallar orqali valyuta oqimining sezilarli oshishi kuzatilib, so'm almashuv kursining barqarorlashishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bank tizimi umumiy likvidligi, jamg'armalar va kreditlar hajmi dinamikasi nisbatan qat'iy pul-kredit sharoitlari saqlanib qolayotganligini ko'rsatmoqda. Bu, o'z navbatida, so'mda jamg'arish jozibadorligini oshirib, aholi omonatlarida yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlab boradi. Shu bilan birga, yil yakuniga qadar inflyatsion kutilmalarning joriy dinamikasi davom etishi bo'yicha ayrim noaniqliklar hamda xizmatlar bazaviy inflyatsiyasi yuqoriligi bilan bog'liq inflyatsiyani oshiruvchi xatarlar ham saqlanib qolmoqda. Markaziy bank inflyatsiyaning 5 foizlik targetiga erishishga qaratilgan nisbatan qat'iy pul-kredit siyosatini amalga oshirishda davom etadi.

## **XULOSA**

Jahon miqyosida pul-kredit sharoitlari shakllanishiga, asosan, rivojlangan davlatlar (AQSH, Yevropa Ittifoqi va boshqalar) pul-kredit sharoitlari ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida, global pul-kredit sharoitlari boshqa iqtisodiyotlarga bevosita va bilvosita ta'sir o'tkazadi. Ushbu ta'sir darajasi mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi ko'lami bilan bog'liq bo'ladi. 2022-yilda yetakchi xorijiy markaziy banklar tomonidan global inflyatsion jarayonlarning sezilarli tezlashishiga javoban pul-kredit sharoitlarini qat'iylashtirish siyosati olib borildi va bu jarayon 2023-yil II yarmigacha davom etdi. Hozirgi davrga kelib, ko'plab rivojlangan davlatlarda inflyatsiyaning pasayib borishi va ichki iqtisodiy sharoitlarning muvozanatlashuvi pul-kredit sharoitlarini yumshatish sikliga o'tish imkonini bermoqda. Xususan, 2024-yilning I choragida yetakchi xorijiy markaziy banklar qat'iy pul-kredit sharoitlarini saqlab turgan bo'lsa, II chorak yakuniga kelib, ular pul-kredit sharoitlarini yumshatish tomonga qayta ko'rib chiqishni boshladi.

Jumladan, iyun oyida Yevropa Markaziy banki va Kanada Markaziy banki asosiy stavkalarini 0,25 foiz bandga pasaytirish bo'yicha qaror qabul qildi. Bundan avvalroq mart oyida Shveysariya markaziy banki asosiy stavkasini 0,25 foiz bandga

va iyun oyida yana 0,25 foiz bandga pasaytirib, 1,25 foiz etib belgiladi (1-rasm). Shu bilan birga, Federal Zaxira Tizimi (FZT) pul-kredit sharoitlarini yumshatishga shoshilmayapti. FZT buni iqtisodiyotda yalpi talabning faolligi hisobiga yuzaga kelayotgan yuqori iqtisodiy o'sish hamda inflyatsion jarayonlarning pasayuvchi trendga o'tishiga ishonch hosil qilish zarurligi bilan izohlagan. Inflyatsiyani jilovlanishi va pasayib borishi bilan Yevropa Ittifoqi va boshqa rivojlangan davlatlarda iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari AQSHga nisbatan ancha past shakllanmoqda. Bu, o'z navbatida, ularda pul-kredit sharoitlarini yumshatish va shu orqali iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash imkoniyatini yaratmoqda. AQSH va Yevropa davlatlarida foiz stavkalari bo'yicha qarorlarning farqlanishi ulardagi inflyatsion jarayonlarning xarakteriga ham bog'liq. AQSHda asosan talab inflyatsiyasi yuzaga kelgan bo'lsa, Yevropada energiya resurslari narxlari va taklif omillari inflyatsiyaga bosim yaratgan. Bu, o'z navbatida, iqtisodiy faollik ko'rsatkichlarida ham o'z aksini topib, AQSHda Yevrohududga nisbatan sezilarli yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari kuzatilmoqda. FZT qat'iy pul-kredit sharoitlarini saqlab qolayotgan vaziyatda boshqa rivojlangan davlatlar pul-kredit sharoitlari yumshatilishi natijasida asosiy stavkalar o'rtasidagi tafovut ortib borishi va uzoq davom etishi jahon moliya tizimi barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Foiz stavkalari tafovuti, birinchi navbatda, valyuta kursi kanali orqali iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatib, AQSH dollarining boshqa valyutalarga nisbatan qadri oshishiga (davlatlar valyutalarining qadrsizlanishiga) olib keladi. Shu bilan birga, boshqa davlatlar valyuta kursining qadrsizlanishi, o'z navbatida, import narxlarining oshishi orqali ushbu mamlakatlarda inflyatsiyaga bosim yaratishi mumkin.

Hukumatning pul muomalasi va kredit sohasida olib boradigan bosh yo'li va mamlakat iqtisodiyoti barqarorligini va uning samarali faoliyatini ta'minlashga, pul tizimini kerak darajada mustahkam turishga qaratilgan chora-tadbirlari. Pul-kredit siyosati davlat iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, odatda, uni Markaziy bank amalga oshiradi.

Pul kredit siyosati orqali muomaladagi ortiqcha pul massasi qisqartiriladi yoki ko'paytiriladi, inflyatsiyani pasaytirish chora-tadbirlari ko'riladi. Markaziy bank pul

kredit siyosatini olib borishda pul bozoriga to'g'ridan-to'g'ri o'zining boshqaruv vakolatlari yordamida va pul emissiyasi orqali ta'sir o'tkazishi mumkin.

Iqtisodiyotni rivojlanishida va ravnaq topishida eng asosiy yo'nalishlardan biri pul kredit siyosati. Hukumatni pul muomalasi va kredit sohasida olib boradigan bosh yo'li va mamlakat iqtisodiyoti barqarorligini va uning samarali faoliyatini taminlashda muhim o'rin tutgan sohadir. Iqtisodiyotda rivojlanishi davomida ko'plab iqtisodiy sohalar orqali rivojlanib boradi.

Pul kredit siyosatini to'g'ri va rejali olib borish mamlakatda ichki narxlar barqarorligi ta'minlanishi makroiqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikning kafolati bo'lib, iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish va rivojlantirish dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda zaruriy sharoit hisoblanadi. Bunda inflyatsiyaning past va barqaror ko'rsatkichlari muvozanatli iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ishlab chiqarish raqobatbardoshligi va aholini yashash darajasini oshirishning muhim omili sanaladi. Shu nuqtai nazardan, narxlar o'sish sur'atlarining pasayishi va barqarorlashishi davlat iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biri bo'lishi kerak.

Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning markaziy banklari tajribalari hamda xalqaro moliya institutlari izlanishlari natijalari pul-kredit siyosatini amalga oshirishda narxlar barqarorligini ta'minlash maqsadining shak-shubhasiz ustuvorligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, pul-kredit siyosatini amalga oshirish tartibi va ketma-ketligi turli mamlakatlarda iqtisodiyotning xususiyatlari hamda tarkibiy tuzilishiga qarab farqlanadi.

Pul kredit siyosatini amalga oshirishning usul va mexanizmlari inflyatsion targetlash rejimiga o'tish, pul balansi nazorati jarayonlari juda ham muhim ahamiyatga egadir.

Ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlash vazifasi pul-kredit siyosatini amalga oshirishning aniq strategiyasi va batafsil rejasi bo'lishini hamda maqsadli ko'rsatkichlarga erishish uchun samarali instrumentlar va mexanizmlarni talab etadi.

## **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. “Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida”.PF-5877. 2019yil.
2. Yo'ldoshev.Z., Qosimov.M.S. Makroiqtisodiyot asoslari. T:”O'qituvchi”.2017.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2024-yil II-chorak Pul-kredit siyosati sharhi. © O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2024-yil.
4. [www.O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasining rasmiy sayti](http://www.O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasining rasmiy sayti).
5. [www.O'zbekiston Milliy axborot agentligi](http://www.O'zbekiston Milliy axborot agentligi).
6. [WWW.bamm .ru](http://WWW.bamm.ru)
7. [WWW.edu.uz](http://WWW.edu.uz)